



NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALAR BILISH FAOLIYATI XUSUSIYATLARI

Ikramova Dilafruz Furqat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrası

Stajyor o'qituvchisi

Suvankulova Shahnoza Karimqulovna

JDPU Maxsus pedagogika kafedrası

Stajyor o'qituvchisi

Tel: +998 90 229 19 93

ikramovadilafruz545@gmail.com

Annotatsiya: Bola nutqining rivojlanishini o'ziga xosligi, nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi, nutqning buzilishini bilish faoliyatiga tasiri, idrok qilishning fonematik buzilishi nutq nuqsoniga ta'siri, nutq nuqsonini bartaraf etishda o'yinlardan foydalanishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Fonematik buzilish, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, tovush talaffuzi, psixologik yondoshuv, bilish faoliyati.

Аннотация: Показана специфика речевого развития ребенка, нарушения основных функций в речи, влияние речевых нарушений на познавательную



деятельность, влияние фонематических нарушений восприятия на речевой дефект, значение использования игр в преодолении речевого дефекта.

Ключевые слова: Фонематические нарушения, восприятие, внимание, память, воображение, мышление, звукопроизношение, психологический подход, познавательная деятельность.

Abstract: The specificity of the development of a child's speech, the violation of basic functions in speech, the influence of speech impairment on cognitive activity, the influence of phonemic impairment of perception on speech impairment, the importance of the use of games in eliminating speech impairment.

Key words: Phonemic disorder, perception, attention, memory, imagination, thinking, sound pronunciation, psychological approach, cognitive activity.

Nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi kishi faoliyatiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, og'ir ruxiy kechinmalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, ayrim so'zlarning noto'g'ri talaffuz etilishi kishini noqulay vaziyatga solib qo'yishi bilan birga uni atrofdagilar bilan muomala qilishda qiynab

Qo'yadi u gapirganda o'z fikrini to'la anglata olmaydi. Nutq bolalarda asta sekin rivojlanadi. Bolalar o'sib rivojlangan sari nutqi ham rivojlanib boradi. Bolalarning nutqi maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stidagi nutq markazi to'liq rivojlangan bo'lishi, ularning sezgi organlari-eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish, teri sezgisi ham yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Ayniqsa nutqni xarakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlanishi juda muhimdir. Agar bola yangi, aniq taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratib berilmasa, unda boladagi jismoniy va ruhiy rivojlanish tormozlanadi.



Bolani juda yoshligidan boshlab narsalarni tanishga, atrofdagilarning ovozi eshitishga o'rgatib borish kerak. Bu bilan esa biz bola nutqining rivojlanishiga yordam bergan bo'lamiz. Demak, nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muxiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Lekin ba'zi sabablar tufayli bola nutqi rivojlanishi sustlashadi, orkada koladi. Bolalik shunday davrki, bu vaktida shaxsning eng muxim sifatlar yuzaga kelishiga hamda uning munosabatlarini shakllanishiga zamin yaratiladi. Bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturida og'zaki nutqning, ya'ni lug'at boyligining oshib borishini, nutqning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishini, tovush talaffuzini xar tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida nutq buzilishlariga ega bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun bolalardagi nutq nuksonlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Nutq -insonning murakkab psixologik faoliyatidir. Nutqning rivojlanishida biologik va ijtimoiy omil asos buladi. Nutq faoliyatini amalga oshirishda eng muhim organ - bosh miya, uning barcha analizatorlari va pereferik nutq organlaridir. Bola nutqi shakllanishida o'ziga xos ketma-ketlik mavjud va u bir necha bosqichlardan iborat. Agar bolaning sensor, motor (harakat) va intellektual imkoniyatlari chegaralangan, rivojlanishida muammolar mavjud bo'lsa, bu kamchiliklar nutq rivojiga ham uz ta'sirlarini ko'rsatadi.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilish jarayonlari xususiyatlari.

Bilish jarayonining sharti sifatida, idrok qilish jarayoni fikrlash jarayoni bilan birga keladi. Idrok qilishning bir necha xil turlari mavjud bo'lib, ular muayyan shakllari bo'yicha farqlanadi: analizatorlarning ishtirokiga ko'ra (ko'ruv idroki, eshituv idroki, sezish idroki, hid bilish idroki, kinestetik idrok va h.k.); materiyaning mavjudligi shakliga ko'ra: atrof-borliqni idrok etish, vaqtni idrok etish, harakatlarni idrok etish; psixik faolligiga ko'ra: oldindan o'ylangan, oldindan o'ylanmagan idrok etish.



Idrok qilishning fonematik buzilishi nutq nuqsoniga ega bolalarning hammasida kuzatiladi, bunda nutq-eshitish va nutq-harakat analizatorlari orasidagi bogliqlik bolmasligi kuzatiladi. Ma'lumki, dizartriya va rinolaliyada uchraydigan nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarni eshitish orqali idrok qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun diqqat-e'tiborning o'zgaruvchanligi, ixtiyoriy diqqatning pastligi, o'z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar kabi bir qator xususiyatlar xosdir. Diqqat ta'sir etuvchi analizatorlarning (ko'rish yoki eshitish) ishtirokiga ko'ra farqlanadi: nutqida kamchiligi bor bolalarda diqqatni to'plash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda rang, shakl, figuralarning fazoviy joylashishini farqlashda xatolar ko'p uchraydi. Bunday bolalar diqqatining tarqoqligi tufayli biron-bir ishni oxiriga yetkaza olmaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotirasi bilan bogliq muammolar bilan G.S.Gumennaya, M.I.Belyajova, Y.F. Garkusha, O.N. Usanova va boshqa olimlar shug'ullanganlar. Bunday bolalarning ko'rish xotirasi ko'lami deyarli me'yordagidan farqlanmaydi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda xotira funksiyalarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ularning ko'rish xotirasi me'yordan hech qanday farq qilmas ekan.

Hozirgi kunda korreksion-logopedik ishni bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishidagi kamchiliklarni hisobga olgan holda tashkil etish zarurligi defektologiya fanining dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda. Bu esa nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarda turli psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini maqsadga 173 yo'naltirilgan holda chuqur o'rganish masalasining muhimligini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda mazkur o'yinlardan foydalanganda o'quvshilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvshilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil yetishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni



yerkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). -T.: Barkamol fayz media, 2017
2. Muminova L.R., Abidova N.Z va boshqalar. Maxsus psixologiya.-T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
3. Pulatova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: Fan va texnologiyalari, 2014
4. Nurkeldiyeva D. Pedagogik psixologik diagnostika. T.: 2019
5. Madazizova D. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2018